

DISLALIYA NUTQ NUQSONINING SIGMATIZM TURINI TAHLIL QILISH. BOLALARDA NUTQ NUQSONINI BARTARAF ETISHDA MASHG‘ULOT VA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti
3-bosqich talabasi
Ro‘ziyeva Nozimaxon

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411347>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq nuqsonlaridan biri bo‘lgan dislaliyaning sigmatizm turi haqida so‘z yuritiladi. Sigmatizm ya‘ni “S” va “Z” tovushlarini chalkashishi yoki har ikkala tovushning almashib qolishi va bu holat bolaning artikulyatsion aparatida qay holatda talffuz etilishi haqida, shu bilan birgalikda dislaliyaning sigmatizm turi uchun xos bo‘lgan korreksiya ishlarini amalga oshirish keltirilgan. Nafaqat bu nutq nuqsonida balki, barcha nutq nuqsonlarini bartaraf etishda didaktik o‘yinlar va bir necha qiziqarli mashg‘ulotlarning bola nutq rivojlanishidagi o‘rni hamda bu o‘yin va mashg‘uotlarni qay tartibda bolalarga qo‘llay olish haqida ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari bolaning rivojlanishida o‘yin faoliyatining qanday ahamiyatga ega ekanligi va buni nutq rivojlanishi bilan o‘zaro chambarchas holda bog‘lab o‘rganish va aynan mana shu jihatdan bolaning nutqini maksimal darajada rivojlantirish va to‘g‘ri muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish haqida keng qamrovli ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Dislaliya, sigmatizm, artikulyatsion profil, tisharo, lab-tish, til oldi, shovqinli, yon, burun sigmatizmlari, didaktik o‘yinlar, og‘zaki va yozma mashqlar, tayyorlov, postanovka, avtomatizatsiya, differentsatsiya davrlari, sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlar, korreksiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается сигматический тип дислалии, являющийся одним из речевых дефектов. Описывается сигматизм, то есть смешение звуков «С» и «З» или чередование обоих звуков, и то, как это состояние проявляется в артикуляционном аппарате ребёнка, а также реализация коррекционной работы, характерной для сигматического типа дислалии. Приводится информация о роли дидактических игр и нескольких интересных упражнений в развитии речи ребёнка, не только при этом речевом дефекте, но и в устранении всех речевых дефектов, и о том, как эти игры и упражнения можно применять к детям. Кроме того, представлена исчерпывающая информация о значении игровой деятельности в развитии ребёнка и о том, как её изучать в тесной связи с развитием речи, и именно в этом контексте – максимальное развитие речи ребёнка и формирование правильных коммуникативных навыков.

Abstract: This article discusses the sigmatism type of dyslalia, which is one of the speech defects. Sigmatism, that is, the confusion of the sounds "S" and "Z" or the alternation of both sounds, and how this condition is pronounced in the child's articulatory apparatus, is described, as well as the implementation of correction work specific to the sigmatism type of dyslalia. Information is provided on the role of didactic games and several interesting exercises in the development of a child's speech, not only in this speech defect, but also in eliminating all speech defects, and how these games and exercises can be applied to children. In addition, comprehensive information is provided on the importance of play activity in the development of a child and how to study it in close connection with speech development, and precisely in this regard, the maximum development of a child's speech and the formation of correct communication skills.

Kirish: Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim yoshida bo’lgan bolalar orasida turli nutq nuqsonlariga ega bo’lganlarini ham uchratishimiz mumkin. Ayniqsa 3 yoshdan maktab yoshigacha bo’lgan bolalar orasida nutq nuqsonlarining turli ko’rinishlar uchramoqda, shu jumladan dislaliy, rinolaliya, dizartriya, disfoniya va shunga o’xshash bir necha nutq nuqsonlar kuzatilmoqda. Yuqoridagilarning orasidan biz eng ko’p uchratadigon nutq kamchiligi bu – dislaliyadir. Bu nutq kamchiliklari ichida eng yengil darajasi hisoblanib ma’lum bir tovushlarni talaffuzda yaxshi chiqmasligidir. Bu nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalar hozirgi kunda ham kam emas albatta. Ammo hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga qaratilayotgan etibor va shart sharoitlar bu nuqsonlarni bartaraf etishda ko’makchi bo’lib xizmat qilib kelmoqda. Ayni shu xususda prezidentimizning maktabgacha ta’lim sohasiga qaratgan etiborlari bunday nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalar bilan tinimsiz ishlab, sog’lom muloqot ko’nikmalarini shakllantirilishida kuch va ishonch vazifasni bajaradi. Hususan davlatimiz rahbari *“Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e’tibor va amaliy g’amxo’rlik ko’rsatish, ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o’zligini to’la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo’lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig’i bilan qaytishiga shubha yo’q”*[1] deya o’zlarining nutqlarida, keltirib o’tganlar.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda uchraydigon ko’pgina nutq kamchilikari turli sabablar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bu sababalar hammamizga ma’lum bo’lgan tug‘ma va orttirilgan sabablardir. Aynan mana shu omillar sababli bolaning ontogenezida turli xil nutq buzilishlari yuzaga kelishi mumkin. Aynan mana shu nuqsonlardan biri bu – dislaliyadir.

Dislaliya termini grekcha so’zdan olingan bo’lib, dis – buzilish, laliya – nutq degan ma’noni anglatadi [2]. Haqiqatdan ham dislaliya to’g’ri nutqning buzilishi desak adashmagan bo’lamiz. Chunki bu nutq nuqsoni turli tovushlar talaffuzining buzilishi hisoblanadi. Bunda faqat bitta emas balki bir necha tovushlarning xato talaffuzini ko’rishimiz mumkin.

Ba’zi bolalarda talaffuz kamchiligi shunchaki bir nuqson bo’lib, bola nutqning leksik, grammatik qismlarida, idrok etish layoqatida hech qanday kamchiliklar kuzatilmaydi. Biroq ko’p hollarda, hattoki, bittagina tovushning noto’g’ri talaffuzi ham nutq sistemasidagi leksik hamda grammatik tomonlarga ta’sir ko’rsatadi, natijada bola tovushni noto’g’ri idrok etadi, o’xshash tovushlar bilan adashtiradi, yozish va o’qish paytida ham xatolarga yo’l qo’yadi [3]. Shunday ekan bolaning nutqida bittagina tovush talaffuzida kamchilik ko’rinsa buni oddiy hol deb takidlash joiz emas albatta. Hatto o’sha bittagina tovush ham bola nutqini ham leksik ham grammatik tomondan noto’g’ri shakllanishiga sababchi omil bo’lib qolishi mumkin.

Sigmatizm (grekcha “sigma” s harfining nomini bildiradi). Bunda sirg’aluvchi (s,z) va shovqinli (sh,j,ch) tovushlar talafuzida kamchiliklar kuzatiladi. Sirg’aluvchi va shovqinli tovushlarning boshqa tovushlarga almashtirilishi parasigmatizm deb yuritiladi [4]. Demak sigmatiz faqatgina bitta tovushdan emas balki bir necha tovushlardan iborat ekanligi ko’rinib turibdi. Yuqoridagi sirg’aluvchi va shovqinli tovushlarni noto’g’ri talaffuz qilinishi natijasida dislaliyaning turi bo’lgan sigmatizm yuzaga keladi va buni natijasida blada bu tovushlar noto’g’ri yoki chalkashib chiqadi.

“S” tovushining noto’g’ri talaffuz turlari

1. Tishlararo sigmatizm
2. Lab sigmatizmi
3. Til oldi sigmatizmi
4. Shovqinli sigmatizm

5. Yon sigmatizm
6. Burun sigmatizmi.

Yuqoridagi sigmatizm turlarining har bittasi ma’lum bir tovush chiqishini ta’minlaydi. Umuman olganda sigmatizm turlarini har bittasini o’ziga xos bo’lgan bartaraf etish usullari mavjuddir. Korreksiya ishlarni turli yo’nalishlarda ya’ni zond orqali amalga oshirish ham maqsadga muvoffiq bo’ladi.

Tisharo sigmatizm. Bunda sirg’aluvchi va yon tovushlarini talaffuz etishda tilning uchi yuqori va pastki tishlarning orasida bo’ladi [5]. Aynan sigmatizmni shu turida ham yuqori va pastki tishlardan havo oqimining chiqishi natijasida hosil bo’luvchi harflarning talaffuz holatining buzilishini ko’rishimiz mumkin. Lab - tish, til oldi, shovqinli, yon va burun sigmatizmlarida ham havoning malum bir miqdorda qay tarzda chiqishi va buning natijasida ma’lum bir tovushning hosil bo’lishi agarda yo’nalish o’zgarsa noto’g’ri tovush talaffuzini keltirib chiqarishi mumkin.

Maktabgacha davrda nutq va til qiyinchiliklariga erta aralashuv, keyingi ta’lim va ijtimoiy sharoitlarda muvaffaqiyatli kommunikativ ko’nikmalarga ega bo’lish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi [6]. Ushbu fikr logopedik muammolarga ega bolalarda erta diagnostika va korreksiyaning ahamiyatini ochib beradi. Bu esa erta aniqlangan tashxis asosida korreksiyaning bir muncha oson kechishini anglatadi.

Yuqoridagi nutq nuqsonlarini bartaraf etish uchun albatta to’g’ri korreksiya ishlarini amalga oshirish zarurdir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish ishi 4 bosqichda olib boriladi: 1) tayyorlov davri, 2) tovushlar talaffuzini yo’lga qo’yish (tovushlar postanovkasi), 3) tovushlarning oson, ya’ni o’z-o’zidan talaffuz etiladigan bo’lishiga erishish – avtomatizatsiyasi, 4) almashtiriladigan tovushlarni bir-biridan farq qilish, tovushlar differensiyasi. Yuqoridagilarning barchasi tovushlarni nutqqa qo’yish uchun eng samarali usullardir. Chunki tovushni nutqqa qo’yish tartib bilan amalga oshiriladi ya’ni oddiydan murakkabga tomon, bu esa o’z o’zidan malum bir tovushni nutqqa qo’yish davomida hech qanday qiyinchilik tug’dirmaydi, aksincha samarali foyda beradi. Shuningdek tovushlarni nutqqa qo’yishda og’zaki va yozma mashqlarning ham o’rni katta. Chunki bola faqat og’zaki nutq ko’nikmalariga o’rganib qolsa unda ichki yozma nutq shakllanishi ortda qolishi mumkin. Shu sababdan ham bolalarga og’zaki ravishda turli hikoyalar va yozma ravishda turli mayda qo’l matorikalarini rivojlantiruvchi mashg’ulotlarni doimiy ravishda qildirib borish lozim.

Logopedik mashg’ulotlarda o’yin elementlarini qo’llash bolalarda qiziqish uyg’otadi, ularda muloqotga kirishish istagini kuchaytiradi va o’rganilgan nutqiy ko’nikmalarni tabiiy sharoitlarda mustahkamlash imkonini beradi [7]. Bolalar bilan ishlash davomida nafaqat bunday tizimli ravishda yondashilgan dastur, balki o’yin faoliyati ham juda katta natija beradi. Asosan maktabgacha ta’lim yoshida bo’lgan bolalarda o’yin faoliyati ko’proq shakllangan bo’ladi. Shu sababdan korreksiya ishlarini turli xil didaktik o’yinlar tarzida amalga oshirilsa, bu bola uchun ham qiziqarli ham foydali bo’lishi mumkin.

Nutq va til bo’yicha mutaxassislar logopedik terapiyada o’yin asosidagi va interfaol strategiyalarni qo’llashlari maktabgacha yoshdagi nutqiy buzilishlarga ega bolalarda jalb etilish va motivatsiyani oshiradi [8]. Yuqoridagi fikr ham o’yin faoliyatining qanchalik muhim ekanligini ko’rsatadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish logopedik mashg’ulotlarning samaradorligini oshirib, bolaning mustaqil mashq qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [9]. Haqiqatdan ham hozirgi kunda bunday texnologiyalardan foydalanish bolalar nutqini shakllantirish uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Chunki buguni kun XXI asr axborot texnologiyalar asridir, ayni shu vaziyatda bolalarga bunday usullarni qo’llay bilish juda

muhim sanaladi. Bu texnologiyalardan ayniqsa to’g’ri foydalanish bolalarning nafaqat nutqni, balki tafakkur darajasini ham kengaytirishning eng yaxshi imkoniyat usulidir.

Shuningdek, nutqiy muammolarni bartaraf etishda faqat nutqiy nuqsonlarni to’g’rilash bilan cheklanmaslik kerak. Bola shaxsining hissiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini qo’llab-quvvatlash, unda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va o’z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatlarini shakllantirish ham logopedik ishlarning ajralmas qismi bo’lishi lozim. Shuning uchun logoped, pedagog, psixolog va ota-onalar o’rtasidagi uzviy hamkorlik, muntazam muloqot va umumiy metodik yondashuv bola rivojlanishida barqaror ijobiy natijalarni ta’minlaydi. Logopedik ishlarning samaradorligi ko’p jihatdan pedagogik jamoa, ota-ona va mutaxassislar o’rtasidagi hamkorlikka bog’liq bo’lib, bu jarayonning izchilligi bolaning nutqiy rivojlanishida barqaror ijobiy natijalarga olib keladi [10]. Shuning uchun ham bola bilan shug’ullanayotgan logoped nafaqat o’zi balki turli mutaxassislar va ota - ona bilan ham o’zaro hamkorlikda ish olib borishi zarur. Shundagina bola nutqini to’g’ri shakllantirish va ijtimoiy munosabatlarini ham rivojlantirishga erishish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish jarayoni doimiy kuzatuv va metodik qo’llab-quvvatlashni talab etadi, chunki bu bosqichda shakllangan nutq keyingi bosqichlarda bilimlarni egallash va ijtimoiy muloqotning asosiy tayanchidir. Ushbu fikr shuni anglatadiki, logopedik muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish faqat til va nutq rivojlanishiga emas, balki bolaning butun ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo’yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi
2. M.Ayupova “Logopediya” darsligi. O’zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti, Toshkent – 2019
3. M.U.Xamidova “Maxsus Pedagogika” o’quv qo’llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent – 2018
4. Zarofat Shamuratova “Logopediya” meyyoriy talaffuzga o’rgatish, Toshkent “NISO POLIGRAF” 2012
5. V. S. Raxmanova Defektologiya asoslari Toshkent «niso poligraf» 2017
6. Karimova, D. (2020). Logopediyada o’yin texnologiyalari. Samarqand: SamDU nashriyoti, p. 78.
7. Sodiqova, M. (2022). Logopediyada axborot texnologiyalarining qo’llanilishi. Toshkent: TDPU nashriyoti, p. 91.
8. Toirova, N. (2018). Nutqiy rivojlanishning ijtimoiy-pedagogik omillari. Buxoro: BuxDU nashriyoti, p. 53.
9. Yusupova, Sh. (2021). Maktabgacha ta’limda nutq rivojlanishining pedagogik asoslari. Toshkent: Fan, p. 44.
10. Reilly, A.S. (2019). *Early Childhood Speech and Language Development*. Cambridge University Press, p. 112.
11. Leonard, L. (2014). *Children with Specific Language Impairment*. MIT Press, p. 89.